

AMIR TEMUR HAQIDAGI BILIMLARNI O‘QUVCHILARGA ANIQ VA TUSHUNARLI QILIB YETKAZISH

Toshkent viloyati Parkent tumani

28-umumiy o‘rta ta’lim maktabining

Tarix fani o‘qituvchisi 1-toifali o‘qituvchi

Mahmudova Fotima Yuldashxonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur shaxsiyati va faoliyati haqidagi bilimlarni o‘quvchilarga aniq, sodda va tushunarli tarzda yetkazish usullari yoritib beriladi. O‘quvchilarga tarixiy shaxslar haqida to‘g‘ri va ishonchli ma’lumot berish ularning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada Amir Temurning hayoti, davlat boshqaruvidagi o‘rni va uning tarixiy merosini o‘quvchilarga samarali o‘rgatish yo‘llari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, tarix, ta’lim, o‘quvchilar, tarixiy shaxs, ma’naviyat, tarbiya, pedagogika.

Tarix fanini o‘qitishda buyuk tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini o‘quvchilarga to‘g‘ri va tushunarli tarzda yetkazish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, Amir Temur kabi buyuk sarkarda va davlat arbobi haqida bilim berish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki dono davlat arbobi, kuchli siyosatchi va madaniyat hamda ilm-fan homiysi sifatida tarixda muhim o‘rin egallagan. Shuning uchun ham o‘quvchilarga uning hayoti va faoliyati haqida aniq va tushunarli ma’lumot berish zarur. Amir Temur XIV asrda yashab o‘tgan buyuk sarkarda va davlat arbobi hisoblanadi. U markazlashgan kuchli davlat barpo etishga erishgan. Uning hukmronligi davrida ilm-fan, madaniyat va me’morchilik rivojlangan.

Amir Temur Samarqand shahrini o‘z davlatining poytaxtiga aylantirib, uni yirik ilmiy va madaniy markazga aylantirdi. U ko‘plab olimlar, me‘morlar va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlagan. Shu sababli Amir Temur davri tarixda muhim davrlardan biri hisoblanadi.

Amir Temur haqidagi bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish usullari

O‘quvchilarga Amir Temur haqidagi bilimlarni samarali yetkazish uchun turli pedagogik usullardan foydalanish mumkin. Jumladan:

- tarixiy hikoyalar orqali tushuntirish
- rasmlar va xaritalardan foydalanish
- sahna ko‘rinishlari tashkil etish
- interfaol metodlardan foydalanish

Bunday usullar o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi va bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ta‘lim jarayonida tarixiy shaxslarning ahamiyati

Tarixiy shaxslar haqida bilim berish o‘quvchilarning ma‘naviy tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Amir Temur misolida o‘quvchilar jasorat, vatanparvarlik va adolat kabi fazilatlarni o‘rganadilar.

Shuningdek, tarixiy shaxslar haqida bilim berish orqali o‘quvchilar o‘z tarixini bilishga, milliy qadriyatlarni hurmat qilishga o‘rganadilar.

Xulosa, Amir Temur haqidagi bilimlarni o‘quvchilarga aniq va tushunarli qilib yetkazish ta‘lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Turli pedagogik usullardan foydalanish orqali o‘quvchilarda tarixga bo‘lgan qiziqishni oshirish mumkin. Amir Temur shaxsiyati yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va milliy g‘urur ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston tarixi darsligi.



2. A. Muhammadjonov. Amir Temur tarixi.
3. Temur tuzuklari.
4. Internet manbalari.